

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent pediatriya tibbiyot
instituti rektori
B.T.Daminov

2022 yil



XUSUSIY BOLALAR GASTROENTEROLOGIYASI MODULI DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	- Cog'liqni saqlash
Mutaxassislik:	70910308	- Bolalar gastroenterologiyasi

Toshkent – 2022

Tuzuvchilar:

Axmedova D.I. - Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 2-Gospital pediatriya noan'anaviy davolash asoslari" kafedrasini mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

Umarnazarova Z.E. – Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, gastroenterologiya bo'limi bosh ilmiy xodimi, tibbiyot fanlari doktori

Axmedova N.R. - Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 2-Gospital pediatriya noan'anaviy davolash asoslari" kafedrasini assistenti, tibbiyot fanlari doktori

Taqrizchilar:

Axmedova I.M. – TXKMRM Pediatriya va bolalar ovqatlanishi kafedrasini mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

SHomansurova E.A. – ToshPTI Ambulator tibbiyot va jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti MUK yigilishida ko'rib chiqilgan va tasdiklashga tavsiya berilgan. (2022 yil "24" avgust "1" – sonli bayonnoma).

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2022 yil "31" avgust "314" – sonli buyruq 3- ilova).

1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

Xususiyl bolalar gastroenterologiyasi moduli - klinik tibbiyotni asosiy qismlaridan biri bo'lib, sog'liqni saqlash tizimining zamon talablariga javob beruvchi bolalarga oshqozon – ichak kasalliklari soxasida tibbiy yordam ko'lamini oshirishning asosi hisoblanadi. Xususiyl bolalar gastroenterologiyasi fani magistraturaning Bolalar gastroenterologiyasi mutaxassisligiga taalluqli.

Xususiyl bolalar gastroenterologiyasi moduli bo'yicha tuzilgan ushbu o'quv dasturi qo'yilgan DTS talablari asosida tuzilgan. Modul o'rganish mobaynida magistratura talabasi gastroenterologik kasalliklarni tekshirish usullari, kelib chiqishi, klinik ko'rinishi, tashxislash, davolash, asoratlari, profilaktikasi, gastroenterologik kasalliklariga moyilligi bo'lgan bemorlarni xavf guruxiga kiritishni to'liq o'rganadi. Gastroenterologik kasalliklarni, ayniqsa ularni og'ir shakllari va tashxislashda qiyinchiliklar tug'diruvchi xolatlariga, aloxida e'tibor beriladi. Xar bir gastroenterologik kasalliklar uchun xos bo'lgan ya'ni spetsifik va sezgir klinik belgilariga to'xtalib o'tiladi. Gastroenterologik kasalliklar bilan og'rigan bolalarni ratsional ovqatlantirish va parvarishlashga aloxida axamiyat beriladi. Kasalliklarni tashxislash jarayonida ularni shikoyatlariga, anamneziga, klinik alomatlariga qarab, differensial diagnostik, klinik, bioximik, immunologik, va funksional tekshirish usullarini xamda davolash algoritmlari bo'yicha ko'nikma va bilim hosil qiladilar. Bo'lg'usi gastroenterolog mutaxassisiga Sog'liqni Saqlash tizimining barcha bo'g'inida o'z vaqtida kasallikni oldini olish, gastroenterologik kasalliklarini rivojlashi bo'yicha xavf guruxiga kiruvchi bemorlarni erta aniqlash, kasallikka xos bo'lgan sezgir va spetsifik klinik belgilarni to'g'ri aniqlash, tashxislash va davolash algoritmidan to'g'ri foydalanish, yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsata olish hamda doimiy davolash va profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish uchun zamin yaratib beradi. Xususiyl bolalar gastroenterologiyasi modulini o'qish jarayonida yukori malakali mutaxassis sifatida nafakat davolash ishini, balki administrativ-boshqaruv, tibbiy-ijtimoiy, ilmiy-pedogogik va tashkiliy metodik ishlarni bajara oladigan bilimlarga ega bo'ladilar.

2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi: sog'liqni saqlash tizimining barcha pog'onalarida ma'muriy-boshqaruv, tibbiy-ijtimoiy, ilmiy-pedogogik va tashkiliy metodik mustaqil ish olib boruvchi yuqori malakali, universal, professional, mutaxassis gastroenterolog tayerlash.

2. Modulning vazifalari:

- Magistrlarda keng va chuqur xajmli asosiy, fundamental tibbiy bilimlarini shakllantirish.
- Magistrlarda professionalizmni, klinik fikr yuritishni, murakkab patologiyalarda to'g'ri mo'ljalni olishni, o'z maqsadlarini, hamda mutaxassis sifatida

gastroenterologni oldiga qo'yilgan talablarni unumli yechish ko'nikmalarini shakillantirish.

- Oshqozon-ichak tizimi kasalliklarida yangi texnologiya va uslublarni o'zlashtirish xamda ular yordamida o'z vaqtida tashxis qo'yishni shakillantirish.

- Magistrnlarni o'z mutaxassisligi bo'yicha vrachlik manipulyatsiyalari ko'nikmalariga o'rgatish va ularni shakillantirish.

- Magistrnlarni isbotlangan meditsina asoslariga o'rgatish va uni bolalar gastroenterologiyasi tizimida amaliyotga tadbiiq qilishni shakillantirish.

- Gastroenterologik kasalliklar bilan og'rigan bolalarni ratsional ovqatlantirish, va parvarishlashga o'rgatish.

- Gastroenterologik kasalliklarini MKB–10ga mos ravishda tashxislashga o'rgatish.

- O'zSSV 10 aprel 2007 yil 155- buyrug'i 15 ilovasiga asosan SHoshilinch xolatlarni baxolash va bolalarga tez tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarni shakillantirish.

2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Magistratura talabasi:

– tibbiyot xodimlari va bemorning qarindoshlari bilan muloqotni etik va deontologik asoslarini;

- bola organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlarini va premorbid oldi fon xolatlarini;

- bemor bolani tekshirish usullari xususiyalarini, bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini ***bilishi kerak***;

– bemor bolalardagi funksional va laborator tekshirish usullarining o'tkazilishini, xamda tahlilini;

– bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxislashni;

– bola organizmidagi premorbid fon oldi holati, asosiy, yo'ldosh kasalliklarni va asoratlarni e'tiborga olgan holda davolash;

– shoshilinch xolatlarda bemor bolalardagi funksional va laborator tekshirish usullarining o'tkazilishini, xamda tahlilini, bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxislashni;

– bola organizmidagi shoshilinch xolatda asoratlarni e'tiborga olgan holda davolash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

– bola organizmining anatomik va fiziologik xususiyalari bo'yicha bilimlarni qo'llashni;

- bemor bolani ob'yektiv tekshirish usullarini, bolalarda a'zolar va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini aniqlashni, xamda o'xshash

sindromlarni qiyosiy tashxislashni, bola organizmidagi premorbid fon oldi xolati, asosiy, yondosh kasalliklarni va asoratlarni e'tiborga olgan xolda davolash;
– bolalarda shoshilinch xolatda bemor bolani ob'yektiv tekshirish usullarini, a'zolar va tizimlarning shoshilinch xolatda asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini aniqlashni, xamda o'xshash sindromlarni qiyosiy tashxislashni, asoratlarni e'tiborga olgan xolda shoshilinch davolash *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fanda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Xususiy bolalar gastroenterologiyasi modul dasturi bo'yicha mashg'ulotlar II-V semestrlarda olib boriladi. Mashg'ulotlar 50% nazariy (seminar mashg'ulotlari) va 50% amaliy qism (tematik bemorlar ko'rigi)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

1-mavzu. Bolalarda xazm organlarini funksional kasalliklari. CHaqaloq va erta yoshda kuzatiluvchi me'da va ichak tizimini funksional buzilishlari yoshi (0-3). Go'daklar regurgitatsiyasi. Go'daklar ruminatsiyasi. siklik qayd qilish sindromi. Etiologiya. Patogenez. Klinika. tekshiruv usullari, organik kasalliklarda uchraydigan belgilar bilan differensial diagnostika mezonlari. Organik kasalliklarga xos bo'lgan xavf tug'diruvchi simptomlarni aniqlash. Davolash prinsiplari. Go'daklarda qorin sanchig'i. Funksional diareya. Disxeziya. Funksional qabziyat. Etiologiya. Patogenez. Klinika. tekshiruv usullari, organik kasalliklarda uchraydigan belgilar bilan differensial diagnostika mezonlari. Organik kasalliklarga xos bo'lgan xavf tug'diruvchi simptomlarni aniqlash. Davolash prinsiplari.

2-mavzu. Bolalarda va o'smirlarda xazm organlarini funksional kasalliklari (4-18 let). Qayd qilish va aerovagiya. O'smirlarda ruminatsiya sindromi. siklik qayd qilish sindrom. Aerofagiya. Etiologiya. Patogenez. Klinika. tekshiruv usullari, organik kasalliklarda uchraydigan belgilar bilan differensial diagnostika mezonlari. Organik kasalliklarga xos bo'lgan xavf tug'diruvchi simptomlarni aniqlash. Davolash prinsiplari. Abdominal og'riqlar bilan kuzatiluvchi funksional buzilishlar. Funksional dispepsiya. Ichak qo'zg'alish sindromi. Abdominal migren'. Funksional abdominal og'riq. Organik kasalliklarga xos bo'lgan xavf tug'diruvchi simptomlarni aniqlash. Davolash prinsiplari. Funksional qabziyat va inkontinensiya. Qabziyatga bog'liq bo'lmagan neretension anal inkontinensiya. Etiologiya. Patogenez. Klinika. tekshiruv usullari, organik kasalliklarda uchraydigan belgilar bilan differensial diagnostika mezonlari. Organik kasalliklarga xos bo'lgan xavf tug'diruvchi simptomlarni aniqlash. Davolash prinsiplari.

3-mavzu. O't qopi va Oddi sfinktrini funksional buzilishi. O't qopini funksional buzilishi. Oddi sfinktrini biliar turi disfunktsiyasi. Oddi sfinktrini pankreatik turi disfunktsiyasi. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tekshiruv usullari, organik kasalliklarda uchraydigan belgilar bilan differensial diagnostika mezonlari. Davolash prinsiplari. Organik kasalliklarga xos bo'lgan xavf tug'diruvchi simptomlarni aniqlash.

4-mavzu. Qizilo'ngach kasalliklari. Qizilo'ngach atreziyasi. Qizilo'ngachni tug'ma stenozi. Tug'ma kalta qizilo'ngach. Qizilo'ngachni ikkiga bo'linishi. Epidemiologiya, Turlari. Etiologiyasi. Klassifikatsiyasi. Patogenez. Klinika. Differensial tashxis. Davolash prinsiplari.

Diafragmani qizilo'ngach teshigi churrasi. Qizilo'ngach diskeneziyasi. Baretta qizilo'ngachi. Qizilo'ngachning kardial qismi axialaziyasi. Epidemiologiya, Turlari. Etiologiyasi. Klassifikatsiyasi. Patogenez. Klinika. Differensial tashxis. Davolash prinsiplari. Qizilo'ngach yot jismi. Mallori-Veyssa sindromi. Qizilo'ngach kuyishlari. Qizilo'ngach divertikullari. O'tkirt ezofagit. Epidemiologiya, Turlari. Etiologiyasi. Klassifikatsiyasi. Patogenez. Klinika. Differensial tashxis. Davolash prinsiplari

5-mavzu. Qizilo'ngach yot jismi. Mallori-Veyssa sindromi. Qizilo'ngach kuyishlari. Qizilo'ngach divertikullari. O'tkirt ezofagit. Epidemiologiya, Turlari. Etiologiyasi. Klassifikatsiyasi. Patogenez. Klinika. Differensial tashxis. Davolash prinsiplari. Gastroezofageal refluks kasalligi. Epidemiologiya, Turlari. Etiologiyasi. Klassifikatsiyasi. Patogenez. Klinika. Differensial tashxis. Davolash prinsiplari. Profilaktika.

6-mavzu. Og'iz bo'shlig'i kasalliklari. O'tkir kataral, aftoz, surunkali qaytalanuvchi stomatit. Glossit, xeylit, aftoz, zambrug'li, eksfaliativ glandulyar xeylit. Kataral, yarali, nekrotik, gipertrofik, atrofik, singot, Gingivitlar. Palatinit. Og'iz bo'shlig'i raki. Etiologiya. Patogenez. Klinika. tekshiruv usullari. Davolash prinsiplari. So'lak bezlari kasalligi. Quloq oldi so'lak bezlarini o'tkir yallig'lanishi (parotit). Seroz, yiringli, flegmonoz parotit. Jag' osti so'lak bezlarini o'tkir, surunkali yallig'lanishi. Etiologiya. Patogenez. Klinika. tekshiruv usullari. Davolash prinsiplari.

7-mavzu. Me'da va 12b/i kasalliklari. Me'da rivojlanishini nuqsonlari. Me'da ageneziyasi, gipoplaziyasi, ikkitali me'da, tug'ma pilorostenoz. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Davolash prinsiplari. O'tkir gastrit. Epidemiologiyasi Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Surunkali gastrit va surunkali gastroduodentit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi.

8-mavzu. Me'da yara kasalligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. O'n ikki barmoq ichak yara kasalligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. YArani joylashgan topografiyasiga ko'ra klinikasi. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi.

9-mavzu. Biliar tizimi kasalliklari. O't ajratuvchi yo'llarining nuqsoni. O't qopining rivojlanish nuqsoni. O't qopining ageneziyasi, aplaziyasi va gipoplaziyasi. O'i qopining joylashish va shaklining anomaliyasi. Klinikasi. Diagnostikasi. Davolash. O't yo'llarining rivojlanish nuqsonlari. Jigar ichi va tashqaridagi o't yo'llarining atreziyasi. O't yo'llarining tug'ma (idiopatik) stenozi va strikturasi. Umumiy o't yo'llarining kistasi idiopatik kengayish (megaxoledox). Tug'ma divertikul. Xoledoxotsele. Jigar ichi o't yo'llarining kistoz kengayishi. (Karoli kasalligi). O't yo'llarining boshqa tug'ma anomaliyalari. O't qopi yo'lini anomaliyasi. Klinikasi. Diagnostikasi.

10-mavzu. O'tkir xoletsistit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Surunkali xoletsistit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi.

O't qopi tosh kasalligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi.

O't qopi poliplari. Infeksion omillar bilan chaqirilgan xolangit. Birlamchi sklerozlanuvchi xolangit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi.

11-mavzu. Oshqozon osti bezi kasalliklari. Oshqozon osti bezining rivojlanish nuqsonlari. Qo'shimcha oshqozon osti bezi. Bo'lingan oshqozon osti bezi. Oshqozon osti bezining tug'ma kistalari. Oshqozon osti bezining tug'ma gipoplaziyasi (SHvaxman sindromi). Bir nechta anomaliyalar (karlik, nanizm) bilan birga kelgan (Yoxanson-Blizzard sindromi) tug'ma oshqozon osti bezi yetishmovchiligi. Izolyatsiyalangan tug'ma lipaza, tripsin yetishmovchiligi. Pankreatik steatoreya. Ichak enterokinazasini tug'ma yetishmovchiligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Oqibati.

12-mavzu. O'tkir pankreatit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Klassifikatsiya. Klinika. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Oqibati. Surunkali pankreatit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patomorfologiya. Patogenetik turlari. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Tug'ma retsidivlanuvchi pankreatit. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi.

13-mavzu. Mukovissidoz. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Oqibati.

14-mavzu. Ichak tizimi kasalliklari. Ichakning rivojlanish nuqsonlari. Ichak atreziyasi va stenozi, Ichak duplikatsiyasi, ichak aylanishi anomaliyasi (ichak burilishini buzilishi, yakunlanmagan burilish), Ladda sindromi. Megakolon. Girshprung. Dolixokolon. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

15-mavzu. Enterokinaza yetishmovchiligi. Enterokinaza tanqisligi. Disaxaridaza yetishmovchiligi. Saxarazo –izomal'taz yetishmovchiligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati. Monosaxaridlar malabsorbsiyasi. Glyukoza va galaktoza malabsorbsiyasi. Fruktoza malabsorbsiyasi. Aminokislotalar va yog'lar malabsorbsiyasi. Xartnup kasalligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

16-mavzu. Lizin, sistin (tsistinuriya), glitsin (glitsinuriya), metionin, malabsorbsiyasi. Abetalipoproteinemiya (Bassen-Kornsveyg kasalligi, akantotsitoz). Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

17-mavzu. Vitaminlar va mineral moddalar malabsorbsiyasi. Enteropatik akrodermatit. Tug'ma xloridli diareya. V12 vitamini malabsorbsiyasi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

18-mavzu. Sistemali kasalliklarni davolash prinsiplari. Kompleks davoning asosiy maqsadlari. Faol patogenetik davoga kiruvchi dori-darmonlar. sitotoksik davoni qo'llashdagi asosiy qonun-qoidalar. Antirevmatik davo o'tkazishda maxalliy davolar, noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari

19-mavzu. seliakiya. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

20-mavzu. Ichakning surunkali yallig'lanish kasalliklari. Nospetsifik yarali kolit kasalligi Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

21-mavzu. Kron kasalligi. Uippl kasalligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

22-mavzu. Ekssudativ enteropaty. Ingichka ichakning immunoproliferativ kasalligi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

23-mavzu. Kalta ichak sindromi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

24-mavzu. Antibiotik-assotsiirlangan diareya (AAD). Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

25-mavzu. Me'da- ichak tizimini yaxshi sifatli o'smalari. Polipozlar va polipozli sindromlar. Adenomotozli polipoz. YUvenil polipoz. Peyts-Egers sindromi. Gerdner sindromi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

25-mavzu. Me'da-ichak tizimining parazitlar invaziyasi. Lyamblioz. Opistorxoz. Fassiolez. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Oqibati.

26-mavzu. Enterobioz. Askaridoz. Trixotsefalez. Difillobotrioz. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Pofilaktika. Oqibati. Tenioz i sistitserkoz. Teniarinxoz. Gimenoledioz. Exinokokkoz. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Pofilaktika. Oqibati.

27-mavzu. Turli kasalliklarda me'da-ichak tizimini zararlanishi. Brikturuvchi to'qimalarning diffuz kasalliklarida me'da-ichak tizimini zararlanishi. Brikturuvchi to'qimalarning immunologik kasalliklari. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Pofilaktika. Oqibati.

28-mavzu. Zambrug'larni visseral shaklida ovqat xazm qilish tizimini zararlanishi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Pofilaktika. Oqibati.

29-mavzu. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish-qon ketish. O'tkir qon ketish bilan kechuvchi shoshilinch xolatlar.

30-mavzu. Tuberkulez kasalligida ovqat xazm qilish tizimini zararlanishi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Pofilaktika. Oqibati.

31- mavzu. Buyrakni surunkali kasalliklarida ovqat xazm qilish tizimini zararlanishi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Pofilaktika. Oqibati. Bolalar va o'smirlarga ko'rsatiladigan gastroenterologik yordamni alohida xususiyatlari. Gastroenterologik yordamni

prinsiplari. Dispanser kuzatuvni tashkil qilish. Sanator-kurort davoni tashkil qilish va ko'rsatmalar. Xazm qilish organlari kasalliklarida fizioterapevtik davoga ko'rsatmalar. Me'da-ichak kasalliklarida parhez taomlarni o'rganish.

32-mavzu. Gematologik kasalliklarda ovqat xazm qilish tizimini zararlanishi. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktika. Oqibati. Immunodefitsit xolatlar Leykozlar. Limfomalar. Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Klassifikatsiya. Klinika. Turlari. Tekshiruv usullari. Differensial diagnostikasi. Asoratlari. Davolash prinsiplari. Profilaktika. Oqibati.

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada va mavzuga tegishli klinikaning bo'limida bir guruhga pedagog tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotning nazariy qismi o'tkazish jihozlangan xonada, stol, stullar, doska, komp'yuter, mul'timedia qurilmalari, flipchart doskasi, markerlar yordamida o'tkaziladi. Modullar bo'yicha tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, o'rgatuvchi fil'mlar, slaydlar, nazorat savollari, qo'shimcha adabiyotlar elektron nusxada saqlanadi.

Mashg'ulotning amaliy qismi klinika bo'limlarida tematik bemorlar namoyish qilish, laborator va instrumental ko'rsatkichlarini taxlil qilish xamda kerakli xujjatlari to'ldirishdan iborat bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- Pedagogning innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga magistratura talabalarida qiziqish uyg'otish;
- Magistratura talabasida natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Magistratura talabasini nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

1. Gastroenterologiya bo'limida va poliklinikada turli gastroenterologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarni olib borish.
2. Bemorlardan gastroenterologik kasalligi xaqida shikoyat va anamnezlarini (xayotiy anamnez, kasallik anamnez, gastroenterologik va medikamentoz anamnez) yig'ish.
3. Tekshiruv hajmini aniqlash bilan dastlabki tashxisni shakllantirish.
4. Zarur tashxislash laborator va instrumental usullarini to'g'ri tanlash.
5. Tashxislash jarayonining algoritmi va asosiy gastroenterologik sindromlarni aniqlash.

6. Ob'ktiv ko'rik paytida kasallikni xos bo'lgan spetsifik belgilarni aniqlashni bilish.
7. Tashxis qo'yish uchun lozim bo'lgan minimal laborator va instrumental uslublarni tanlay olish.
8. Bir nechta tekshirish usullarini mustaqil bajara olishi (to'g'ri ichakni barmoq bilan tekshirish, rektoromonoskopiya, duodenal zondlash, oshqozonni yuvish).
9. Laborator va instrumental, rentgenologik tekshirish natijalarini to'g'ri interpretatsiya qilish, kasallikga xos bo'lgan belgilarni topish.
10. Bemorni birlamchi yoki shoshilinch yordamga muxtojligini aniqlay olish va yerdamni berishni bilish.
11. Bemorni statsionarga yetqizish uchun ko'rsatmani aniqlay bilish (shoshilinch yoki rejali).
12. Gospitalizatsiyani tashkil qilishni, kerakli xujjatlarni to'ldirishni bilishi.
13. YAkuniy tashhis qo'yish va qiyesiy tashxisni o'tqazish uchun kerakli laborator, instrumental, rentgenologik, radiologik va boshqa uslublarni to'g'ri tanlay olishi.
14. Tavsiya qilingan davo muolajalarini kasallikni klinik kechishini, asortalarini hisobga olgan holda o'z vaqtida to'g'ri korreksiya qilishni bilish.
15. Kasallikni turiga, kechishiga, asoratiga qarab invalidlikka chiqarish uchun ko'rsatmalarni bilishi, hamda kasallik tarixidan ko'chirmani talabga javob beradigan qilib to'ldirishni bilish.
16. Birlamchi tibbiy xujjatlar asosida kasalliklar strukturasi, asoratlari, yendosh kasalliklar va boshqa ko'rsatukichlar bo'yicha taxlil qilishni bilish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

- UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
- UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;
- UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;
- UKK 1². Umumiy pediatrianing standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;
- UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;
- UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

¹ UK- умумий компетенция

² UKK – умумий касбий компетенция

UKK 4. Pediatriyaning muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Magistratura talabasining amaliyoti ixtisoslashtirilgan muassasalarning bo'limlarida va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofil'mlar orqali namoish etiladi, algoritm asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Magistratura talabasi amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, klinik ordinatorlar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida keyin umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam algoritmi va videofil'mi, o'kuv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda nazorat pedagog tomonidan amalga oshiriladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Magistratura talabasi, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa rezidentlarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalarga ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan rezidentning amaliy

ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darsigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

O'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarihlari va ambulator kartalar va x.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa rezidentlar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan rezidentning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

3. Xulosa. Bu bosqichda pedagog magistratura talabasi tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'lla olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb xisoblanadi.

Magistratura talabasi bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib ximoya qilganda baxolanadi.

Mashg'ulot so'nggida pedagog har bir magistratura talabasi amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Magistratura talabasi amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Magistratura talabasi barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda mutaxassislikni o'zlashtirgan hisoblanadi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

